

ULUG'BEK HAMDAMNING "MUVOZANAT" ROMANIDA KOMPOZITSION VOSITALAR

Turdiyeva Gulhayo Ismat qizi

*Samarqand shahar Kimyo va biologiya fanlariga
ixtisoslashtirilgan 14-Tayanch maktabi o'qituvchisi*

Normamatova Mahliyo Azmiddin qizi,

Samarqand shahri 35-maktab o'qituvchisi

Badiiy asar to'qimasida shunday unsurlar ham borki, ularni ba'zi adabiyotshunoslar asarning sujetdan tashqari unsurlari "kompozitsion vositalar" deb yuritishadi. Aslida bunday vositalar kompozitsion vositalarni tashkil etadi. Badiiy asar tarkibidagi kompozitsion vositalarga asar sarlavhasi, epigiraf, lirik kirish, lirik chekinish, xotima, qisqartma epizod, pezaj, uy-joy, jihoz-buyumlar tasviri, qoliplash kabi unsurlarni kiritishimiz mumkin.

Adabiyotshunos Izzat Sulton kompozitsiya haqida so'z yuritib, quyidagi fikrlarni qayd qilgan: "Asarning turli qismlari orasidagi mutanosiblik kompozitsiya deb ataladi. Asar kompozitsiyasi, dastavval, muallifning tasvir etilayotgan hayotiy materialiga munosabati bilan belgilanadi, ya'ni kompozitsiya birinchi navbatda g'oyaviy-estetik tushunchadir" [1, 124-bet].

Darhaqiqat, kompozitsion vositalar so'z san'atkorining badiiy mahorati asosida asar tarkibidan o'rin oladi. Badiiy asarda asosiy o'rni turfa xil tushunchalarni kompozitsion vositalar asosida ifodalanishiga xizmat qiladi.

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani tarkibidan o'rin olgan ayrim kompozitsion vositalar xususida so'z yuritimiz. Asar sarlavhasi – badiiy asar arxitektonikasini tashkil etuvchi badiiy unsur vazifasini bajaradi. Ko'p hollarda asar sarlavhasi uning mazmuni bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shunday holatni "Muvozanat" romani misolida ko'rish mumkin. Aslida muvozanat ilmiy atamadir. Bu atama yozuvchi uchun bugungi voqealarni tahlil qilishda qulay bir vosita sifatida xizmat qilgan. Butun olam muvozanat qonuniyati asosida mustahkam turgan bo'lsa, jamiyat ham, uning asosini tashkil qilgan insonlar ham ayni muvozanat tufayli barqaror hayot kechiradi. Muvozanat buzilgan zahoti hayotda, uning a'zolari orasida har xil kutilmagan o'zgarish, hatto izdan chiqishlar yuz beradi. Bu fikr asar tarkibiga chuqur singdirib yuborilgan. Roman haqida so'z yuritgan adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov muvozanat falsafiy termin ekanligiga alohida urg'u bergan.

Asar voqeligini ifodalashda mazmun va g'oyadan kelib chiqqan holda "Muvozanat" deb nomlagan. Shuning uchun asar qahramonlarining hayotidagi muvozanatni o'zgarishi natijasida ruhiy izzitroblar iskanjasida qolgan holatlar ko'z o'ngimizda jonlanadi. Bu xususiyat orqali muvozanat har qanday holda o'zining

ma'lum bir qirrasini namoyon qiladi. Masalan, asardagi Said yoki Mirazimdagi oilaviy muvozanatning buzilishi, har ikki qahramonni fojealar sari yetaklaydi.

Pezaj tasviri ham asarda yetakchilik qiladi. Ko'pgina asarlarda pezaj g'oyatda muhim g'oyaviy-kompozitsion rol o'ynaydi. Yozuvchi tabiat lavhalarini chizish yo tasvirlash bilan o'zining tabiatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Adibning "Muvozanat" romanida pezaj inson ruhiyati bilan bo'g'liq holda tasvirlanadi. Yozuvchi roman qahramonlaridan bir nechtasini o'ziga xos xarakter xususiyatini yoritishda pezajdan o'rinli foydalangan. Roman tarkibidan o'rin olgan quyidagi tasvirlarga diqqat qarataylik: "Bir tekisda o'sgan quyug qizg'aldoqzorning enlari ma'lum-u, bo'ylar ko'z ilg'amas olisliklar qa'riga "cho'kib" ketgandi. U na chopqilab dumalashini, na boshqa boalalar singari qizg'aldoqdan quchoq-quchoq uzishni bilardi. Yusufni hayratdan ko'zlari katta-katta ochilib qizg'aldoqning qip-qizil kosasiga, shu qizillikka uyg'un ich qismidagi qop-qora xoliga termilardi, uni uzishga botinolmasdi" [2, 40-bet].

Bu o'rinda yozuvchi bolalikning beg'ubor onlarini pezaj tasviriga uyg'un holda tasvirlagan. Yusufning bolalikdagi o'ziga xos xarakter egasi ekanligini qayd qilgan, chunki qizg'aldoqlarga mehr bilan qaragan bu yosh yigitning ularga ozor berishga harakat qilmasligiyoq uning o'ziga xos xarakter egasi ekanligini anglatadi. Shu jihatdan asardagi Zahro obraziga nazar tashlasak, uning ruhiyatini, botiniy olamidagi ziddiyatlarni tasvirlashda bu holatni kuzatamiz. Masalan, asarda bahor tasvirini yozuvchi quyidagicha ifodalaydi:

"Bahor. Kunlar iliq, esayotgan shabadalar iliq. Shunday bir iliqlikki, o'sib-unmoqda, kulib-quvonmoqqa undaydi. Ayniqsa, aprelda, daraxtlar rango-rang yashil, oq, pushti, binafsharang libos kiyganda; butun olamga ulug'vor ko'tarilish, hayot deb atalmish ma'noni o'zida jamlab, yangi kuch, yangi g'ayrat, yangi umid va yangi hayajon bilan oldinga talpinish yuz bergandi... Zahroning qalbida ham ana shunday ko'tarinki tuyg'ular junbo'shi tinmaydi". Bu o'rinda yozuvchi pezaj vositasida qahramonning ichki olamini, his-tuyg'ularini ochib beradi. Bahor tasviri Zahroning botiniy olamidagi ziddiyatlarni, ruhiy kechinmalarni yoritishga xizmat qilgan. Zahroning ruhiyatidagi o'zgarishlarni, iztiroblarni yoritishda pezaj tasviridan asosli foydalangan [3,14; 4,12; 5,34; 6, 500].

Badiiy asarda ishtirok etuvchi qahramonlar bevosita harakat qiladigan maydon, uy-joy tasviri ham muhim g'oyaviy-kompozitsion vazifani bajarganligini kuzatamiz. Bir necha o'rinlarda asar qahramonlari harakat qilgan joylarni o'ziga xos tarzda tasvirlab beradiki, bu esa asar qahramonlarining xarakterini yoritishga xizmat qilgan. Masalan, Mirazim yoki Saidning uy-joyini tasvirlaganda turfa xil xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Uy-joy tasviri ham xuddi tabiat manzaralarining tasviri kabi asarning umumiy-g'oyaviy mazmunini yoki uning ayrim jihatlarini kengaytirishga va

chuqurlashtirishga, qahramonlarni konkretlashtirishga xizmat qiladi. Ularga tabiiylik, jonlilik, haqqoniylik baxsh etishga ko'maklashadi.

Roman tarkibida qahramonlardan biri Ergash yashaydiga uy va uning jihozlari tasviri orqali uning ruhiy dunyosini, moddiy va ma'naviy olamini yoritish uchun asosli foydalangan: "Mog'ori chiqib ketgan bir xonali uyda juldur o'rindiqda tonggacha o'tirib chiqdi". Bu tasvirlarda Ergashning moddiy jihatdan og'ir hayot sharoiti haqidagi tushunchalarni o'quvchida uyg'otadi. Shu bilan bir qatorda uning xarakter va ruhiyatini talqin etishda o'rinli foydalangan.

Xullas, iste'dodli yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanidan o'rin olgan kompozitsion vositalar asar sujeti tarkibiga mahorat bilan singdirilgan bo'lib, o'ziga xos badiiy yukni ifodalagan. Shuningdek, asar qahramonlarining xarakter va ruhiyatini yoritish jarayonida kompozitsion vositalardan o'rinli foydalangan. Asar sarlavhasi ham badiiy g'oya va mavzuga chambarchas bog'liq ekanligini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Adabiyotlar:

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, "O'qituvchi", 2005. -272 b.
2. Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq (roman va hikoyalar). –Toshkent, "Akademnashr", 2014. – 544 b.
3. Насиров А.Н. Конфликт и художественная интерпретация. Образование, наука и инновационные идеи и мире. Международный научно-образовательный электронный журнал. – Фергана, 2023. 11-15-стр.
4. Nasirov A.N. Turk adabiyotinin gelisiminde devlet rakamlarinin veri (Mustafa Kamal Ataturknun faaliyateti ornegi uzerinden). "In memory of the 142th anniversary of his birth" 3rd international Ataturk symposium. 19-may, 2023. Azerbaijan Attaturk Center, Baku, 10-15-betlar.
5. Насиров А.Н. Свойства художественного языка в историческом романе. Евразийский союз ученых (ЕСУ). Международный научно-исследовательский журнал. №7 (76) / 2020. 3 часть. Impact Faktor 2020: 6.05. ISSN 2411-6467. 33-35-стр.
6. Nasirov A.N. Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov's novels. *Academicia: An Internatioonal multidisciplinary Research journal* ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF 2020: 7.13. Str. 498-501.